



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI

Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi,  
Ta'lim kafedrası dotsenti v.b.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1638>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 76

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

boshlang'ich ta'lim, texnologiya, ko'rgazmalilik, illyustratsiya, demonstratsiya, pedagogik kuzatuv, eksperiment, savol- javob, amaliy metod, ijodiy tafakkur, o'quv jarayoni, material, ta'lim, tarbiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida ko'rgazmalilik tamoyilining o'quvchilar bilimini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot jarayonida illyustratsiya va demonstratsiy metodlarining o'zaro farqi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkuriga ta'siri pedagogik tajribalar asosida yoritilgan. Boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmalilikning texnologiya darslaridagi ahamiyati, afzalliklari, kamchiliklari tahlil qilingan. Boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmalilik metodlardan foydalanishning darajasi o'rganilib, pedagogik jarayonda o'qituvchilarning dars tashkil etishdagi samaradorliklari tahlil qilingan va ko'rsatkichlarda berilgan. Xususan, olimlar fikrlari va qarashlari ko'rgazmalilikning inson ongidagi obrazli poydevori asosida yoritilgan. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilikning qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy erkinligi va o'zlashtirish samaradorligini oshirishini isbotlovchi xulosalarni ilgari surilgan. Ko'rgazmalilik metodlarga misollar keltirilgan, boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmalilik vositalardan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 76

KEYWORDS

primary education, technology, visual aids, illustration, demonstration, pedagogical observation, experiment, question-and-answer, practical method, creative thinking, educational process, material, education, upbringing

ANNOTATION

This article highlights the role of the principle of visualization in the formation of students' knowledge in primary school technology lessons. In the course of the study, the differences between illustration and demonstration methods, as well as their influence on students' logical thinking, were highlighted based on pedagogical experiments. The importance, advantages, and disadvantages of visual aids in technology lessons in primary school are analyzed. The level of use of visual methods in primary school lessons was studied, and the effectiveness of teachers in organizing lessons in the pedagogical process was analyzed and presented in indicators. In particular, the opinions and views of European scholars are highlighted on the basis of the figurative foundation of visualization in the human mind. Conclusions have been put forward proving that the use of exhibitions in primary grades increases students' creative freedom and the effectiveness of learning. Examples of visual methods are provided, and recommendations for the use of visual aids in primary school lessons have been developed.

**Kirish.** Yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishga bog'liq. O'quvchi voyaga yetib, qaysi kasb egasi bo'lmasin, boshlang'ich ta'limda olgan bilim, ko'nikma, malakalari hayoti davomida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Chunki yosh avlodning kelajakda kim va qanday inson bo'lib tarbiyalanishi ham boshlang'ich ta'limga har tomonlama bog'liq bo'ladi. *"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"* – deydi Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, asos mustahkam bo'lmas ekan u uzoq turmay, qachondir qulab tushishi muqarrar. Shuning uchun ham o'zgarish-rivojlanishni boshlang'ich ta'limdan boshlash kerak.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi pedagogik jarayonining subyektini hisoblanadi. Shu sababdan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi jarayonga to'g'ri rahbarlik qilish uchun chuqur bilimga, yuksak kasb mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Inson miyasining 30% hajmini ko'rishni, faqat 3% igina eshishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85% ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqining "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan. [1]

O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarini hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'qituvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi. Ushbu prinsipi asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L.V.Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Pedagogika fanining asoschisi Yan Amos Komenskiy ko'rgazmalilikni ta'limning muvaffaqiyati uchun asos deb hisoblagan. U o'zining "Buyuk didaktika" asarida bu qoidani quyidagicha izohlaydi: "O'qitishda hamma narsani sezgi a'zolari orqali idrok etishga tayanish kerak. Ko'rish qobiliyati uchun — ko'rinadigan, eshish uchun — tovushli, hid bilish uchun — hidli, ta'm bilish uchun — ta'mli va ushlab ko'rish uchun — tegib seziladigan narsalarni taqdim etish zarur." [2]

Y.A.Komenskiy "Didaktikaning oltin qoidasida" ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish yo'llarini shakllantirdi. Komenskiy o'z muloxazalarini mustahkamlash uchun quyidagi fikrni aytadi. "Eshitganni aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh yaxshi". Komenskiy o'z xulosasida o'quvchilarni boshqarishi narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklari emas, balki o'sha narsaning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur.

K.D. Ushinskiy boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri "shakllar, ranglar va tovushlar" bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bola mavhum tushunchalarni emas, balki aniq narsalarni tezroq o'zlashtiradi: "Bolalar tabiatan rasmlar orqali fikrlaydilar. Agar siz bolaga biron bir tushunchani so'z bilan tushuntira olmasangiz, rasm ko'rsatga va u tezda tushunib oladi." [4] U ko'rgazmalilikni bolalarni nutqini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib bergan va ta'lim jarayonidagi ko'rgazmalilik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosiga bo'linishini ta'kidlagan edi. Ko'rgazmalilik tushunchasiga suratlar, kolleksiyalar, modellari, javdallar va boshqa ko'rgazma qurollarini, biz ko'rib turgan olamdagi buyumlar va hodisalarni, shuningdek, bolaning turmush tajribasini va badiiy asarlardan aniq obrazlar orqali ifodalangan hayotiy voqealarni ham kiritgan. Ushinskiy ko'rgazmalilik ta'lim usulini mukammallashtirib, suratlardan foydalanib, bolalarga hikoya qilib berish va bolalarning suratlariga qarab so'zlab berishlari usullarini asoslab, bu usulning bir qancha aniq qoidalarini yaratgan. Ushinskiy boshlang'ich ta'limning mukammal o'quv rejasini taklif qildi: bu o'quv rejasini o'z ichiga ko'rgazmalilik o'qitish; yozuv, rasm, bolalarning qo'l ishlari, o'qish, sanoq, hikoya qilib berish, ashula, gimnastika mashg'ulotlarini oladi. [3]

Psixolog olim L.Vigotskiy ko'rgazmalilikni faqatgina darsni osonlashtirish vositasi emas, balki bolaning intellektual rivojlanishini stimullaydigan vosita sifatida ko'rgan: "Kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'rgazmalilik obrazli tafakkur ustunlik qiladi. Ko'rgazmalilik o'quvchi ongida so'z va real borliq o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi." [5] Zamonaviy o'zbek pedagogikasida ko'rgazmalilik interaktivlik va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan. Masalan, pedagogika fanlari doktori R.Mavlonova va N. Vohidovalar boshlang'ich ta'lim metodikasida shunday yozadi: "Ko'rgazmalilik o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, xotirada ma'lumotlarning uzoq muddat saqlanib qolishini ta'minlovchi asosiy omildir." [6]

Professor Q. Abdullayeva boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha fundamental ishlarida savod o'rgatish jarayonida ko'rgazmalilikning o'rini alohida ta'kidlaydi: "O'quvchi harfni yoki tovushni o'rganayotganda, uning ongida shu harf bilan bog'liq aniq rasm yoki timsol gavdalanishi shart. Ko'rgazmalilik o'quvchining lug'at boyligini oshirish va nutqini o'stirishning eng qisqa yo'lidir." Professor Q. Abdullayevaning savod o'rgatishda ko'rgazmalilik bo'yicha qarashlari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik poydevor hisoblanadi.

Professor M. Jumayev boshlang'ich sinf matematika darslarida mavhum tushunchalarni o'zlashtirishda ko'rgazmalilikni didaktik ustun deb hisoblaydi: "Matematik tushunchalar o'quvchi uchun o'ta mavhumdir. Ularni real modellar, didaktik materiallar va chizmalar orqali ko'rsatishgina bolada mantiqiy operatsiyalarni (analiz, sintez) amalga oshirish imkonini beradi." [7]

Pedagogika sohasidagi yirik olim O. Roziqov ko'rgazmalilikni ta'limning onglik va faollik tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganib chiqqan. Ko'rgazmalilik faqat ko'rsatish emas, balki ko'rilayotgan narsa haqida fikrlashga undashdir. Agar ko'rgazmali qurol o'quvchini savol berishga va mulohaza yuritishga majbur qilmasa, u o'zining didaktik funksiyasini bajarmasligini aytib o'tgan.

Bugungi kunda o'zbek olimlari "Raqqamli ko'rgazmalilik" tushunchasini faol ilgari surishmoqda. Bunda nafaqat qog'ozli plakatlar, balki:

- Animatsiyali slaydlar;
- Virtual laboratoriyalar;
- Infolar va intellekt-xaritalar boshlang'ich ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda.

Olimlarning ta'limotida ko'rsatmalilik tushunchasi idrok etishning har xil turlari: ko'rish, eshitish, sezgi va hokozalar bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, yengilligi, shakli va hokozolarni bilish orqali amalga oshiriladi. [8]

**Metodologiya.** Ko'rsatmalilik – didaktikaning oltin qoidasi deyiladi. Har doim o'qituvchi darsdan kamida bir kun avval ko'rsatmali materiallarni o'tayotgan fani uchun ajratilgan xonaga hozirlab vidoproekda ekranga chiqarib, ko'rsatib qo'yilishi yoki turli mavzuga oid xarita, tarqatma materiallar, turli xil predmetlar, rasmlar, o'yinchoqlar va boshqa materiallarni tayyorlash maqul.

Boshlang'ich sinf darslarida ta'lim jarayonining samarali va sifatli bo'lishi uchun o'qituvchining pedagogik mahorati, metodikani to'g'ri tanlashi, o'quvchilarga mazmunli darslar taqdim etishi katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda ko'rgazmalilik alohida o'rin tutadi. Ko'rgazmalilik, o'quvchilarning bilish jarayonini osonlashtirish, ularning e'tiborini darsga qaratish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi.


Ko'rgazmali materiallar yordamida o'qitish, boshlang'ich sinfda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning o'rganish jarayonini yengillashtirish va natijada o'qish samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar hali yosh, ularning diqqatini uzoq vaqt davomida bir nuqtaga jamlash qiyin bo'ladi. Shu sababli, o'qituvchi tomonidan darsda qo'llaniladigan ko'rgazmalar (rasmlar, diagrammalar, kartalar, modellar, o'quv video materiallari) o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ko'rgazmali vositalar boshlang'ich sinf darslarida o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ko'plab vazifalarni hal etishda ko'makchi bo'ladi. Birinchi navbatda darsning mazmunini boyitish uchun ahamiyatli bo'lib, darsda yangi mavzu haqida o'quvchilarga ma'lumot berish va tushunishni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilarga ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Ko'rgazmali vositalar o'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikrlashga undaydi. Rasm, diagramma yoki video orqali berilgan yangi mavzu haqida o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilish va savollar berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirda eng ko'p tarqalgan ko'rgazmali vositalari: fotosuratlar, diagramma va grafikalar o'quv video materiallari, model va maket kabilardir.

O'quvchining past o'zlashtirish sababi pastligida emas, ko'p holatda xotirasining kuchsizligi natijasidir. Shuning uchun ham o'qituvchi dars davomida xotirada yaqqol saqlanib qoluvchi turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ko'rgazma samarali bo'lishi uchun ba'zi bir talablarga rioya qilinishi kerak.

Ko'rgazmali qurollarga qo'yiladigan umumiy talablar mavjud: mazmunining ilmiyligi, o'quv dasturiga mosligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi. Boshlang'ich sinflarni o'qitishda ko'rgazma manbasi mazmun jihatdan sodda va aniq bo'lishi ham kerak.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanishning afzalliklarini quyida ko'rib chiqamiz.



**1-rasm. Ko'rgazmali vositalardan foydalanishning afzalliklari**

Quyida pedagogik jarayonda ko'rgazmali vositalardan foydalanish T jadvalda ifodalangan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Murakkab tushunchalarni yaxshiroq anglashinadi;</li> <li>• Tushuntirish qulaylashadi;</li> <li>• Yetkazilayotgan ma'lumot ob'ektlari asoslanadi;</li> <li>• Eslab qolish osonlashadi;</li> <li>• Mavzuga jalb etadi;</li> <li>• Qiziqishni oshiradi;</li> <li>• Faollashtiradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Texnik muammolar kelib chiqishi;</li> <li>• Har bir dars uchun alohida ko'rgazma tayyorlash zarurligi;</li> <li>• Ko'p resurs taminoti kerak bo'ladi;</li> <li>• Tayyorlash uchun vaqt talab etishi.</li> </ul>

**2-rasm. Ko'rgazmali vositalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari**

**Pedagogik kuzatish metodi** - tadqiqot jarayonida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish metodidan foydalanildi. Ushbu jarayon ikki bosqichda — aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida o'rta maktabning ikkita parallel sinfi tanlab olindi. Nazorat guruhi mashg'ulotlar illyustratsiya: vizual sxemalar, rasm va diagrammalar asosida tushuntirishlar olib borildi. Eksperimental guruh esa demonstratsiya: amaliy ko'rsatuv, real tajribalar, videonamoyish metodlari orqali dars jarayoni tashkil etildi.

Tadqiqotning pedagogik kuzatish qismi boshlang'ich sinf texnologiya darslarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, "ko'rsatmalilik" tamoyili asosida tashkil etildi. Kuzatish predmeti sifatida "Qog'ozdan buyumlar yasash" va "Plastilin bilan ishlash" mavzulari tanlandi. Jarayon quyidagi ikki uslubni solishtirishga qaratildi:

Ilyustratsiya metodi orqali olib borilganda doskaga narsa- buyumni yasash bosqichlari aks etgan grafik sxemalar, tayyor namunalarning rasmlari va bosqichma-bosqich chizmalar ilindi. Demonstratsiya metodi

orqali olib borilganda esa o'qituvchi o'quvchilar ko'z o'ngida qog'ozni to'g'ri buklash, qirqish va plastilina shakl berish usullarini amalda ko'rsatib berildi. Kuzatish metodi natijalari o'quvchilarning ishlarini quyidagi mezonlar bo'yicha 10 ballik tizimda baholaniib, tahlil qilindi.

**Savol-javob metodi (anonim)** - tadqiqot jarayonida boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilikning ahamiyatini aniqlash maqsadida savol-javob metodi qo'llanildi. Savol-javob metodi pedagogik tadqiqotlarda respondentlarning fikrini tezkor va aniq olish, ularning amaliy tajribasini o'rganish hamda muayyan muammo bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish imkonini beruvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarning dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish darajasi va uning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 18-IDUM boshlang'ich sinf 14 nafar o'qituvchilaridan boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilikning ahamiyati qay darajada ekanligini so'rovnoma orqali aniqladik. Uning natijalari quyida ko'rsatilgan.




3-rasm. Savol-javob metodining natijalari.

**Amaliy ish metodi** – tadqiqot jarayonida olingan nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda sinab ko'rish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va o'qitish metodlarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish maqsadida qo'llanildi. Amaliy ish metodi pedagogik tadqiqotlarda o'quvchilarning psixomotor ko'nikmalarini rivojlantirish, darsga bo'lgan qiziqishini real jarayonda kuzatish hamda tanlangan metodikaning natijadorligini obektiv baholash imkonini beruvchi asosiy usullardan biri hisoblanadi. Amaliy jarayonda texnologiya fanidan "To'quvchilik iplaridan kuchukcha yasash" mavzusi asosida dars tashkil etildi. 3-A sinfda (30 nafar o'quvchi) yangi mavzu an'anaviy yondashuv asosida og'zaki tushuntirildi va yasash jarayoni ko'rgazmali vositalarsiz amalga oshirildi. O'quvchilar asosan o'qituvchining og'zaki tushuntirishi orqali topshiriqni bajarishga harakat qildilar. 3-B sinfda (24 nafar o'quvchi) esa dars ko'rgazmali yondashuv asosida tashkil etildi. Bunda mavzu maket yordamida tushuntirildi, tayyor namunalar ko'rsatildi va yasash jarayoni bosqichma-bosqich jonli namoyish orqali olib borildi. Shuningdek, videomateriallardan foydalanilib, mavzu yanada mustahkamlandi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv hamda empirik tahlil usullari tanlab olindi. Tadqiqot davomida an'anaviy dars berish uslubi bilan zamonaviy ko'rgazmali texnologiyalar qo'llanilgan darslarning samaradorligini o'zaro qiyoslandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik eksperiment, savol-javob, amaliy ish metodlaridan foydalanildi. Xususan, tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'tkazildi. Eksperimentning mohiyati shundan iboratki, birinchi guruhda mavzular faqat verbal, ya'ni og'zaki va darslik matni asosida tushuntirilgan bo'lsa, ikkinchi guruhda har bir tushuncha vizual obrazlar, raqamli ko'rgazmalar va metodik o'yinlar orqali tushuntirildi. Shuningdek, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida diagnostik testlar va savol-javob metodidan foydalanildi, bu orqali olingan ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlashga erishildi.

**Natijalar.** Yuqorida qayd etilgan tadqiqot metodologiyasi doirasida olingan ma'lumotlar tahlil qilinganda, o'rganilayotgan jarayonning mohiyatini tavsiflovchi quyidagi asosiy natijalar qayd etildi.



1. Jadval. Ko'rgazmali metod turlari.

Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra, faqat illyustratsiya (rasm va sxemalar) bilan cheklanilgan nazorat guruhida o'quvchilar buyumning umumiy ko'rinishini tasavvur qila olsalar-da, amaliy ijro jarayonida (qog'ozni buklay burchagi yoki plastilin qismlarini birlashtirishda) qiyinchiliklarga duch kelishdi. Bu guruhda o'rtacha ball 5.8 – 6.4 atrofida bo'ldi. Demonstratsiya metodi qo'llanilgan eksperimental guruhda o'quvchilar o'qituvchining harakatlarini bevosita kuzatish orqali "jonli namuna"ga ega bo'ldilar. Natijada, shaklning aniqligi bo'yicha ko'rsatkich 28% ga yuqori bo'lib, 9.2 ballni tashkil etdi. Videonamoyish va real amaliy ko'rsatuv bolalardagi mayda motorika harakatlarining aniqroq bo'lishiga xizmat qildi. Eng yuqori o'sish ijodiy yondashuv mezonida (33%) kuzatildi, chunki amaliy jarayonni to'liq o'zlashtirgan bola olingan ko'nikmani yangi shakllarga tatbiq etishda o'zini erkin his qildi.

**Savol-javob (anonim) metodi o'tkazilganda buning savollari quyidagicha bo'ldi:**

Siz darslaringizni ko'rgazmali vositalar asosida tashkil etasizmi?	72 % ha, 14% qisman, 14% har doim
Siz darslaringizni ko'rgazmali vositalar asosida tashkil etasizmi?	72% ha, 14% qisman, 14 % har doim
Ko'rgazmali vositalarning asosan qanday turlaridan foydalanasiz?	Foto-rasm 38%; Maket-model 0%; Videonamoyish 62%.
Siz ko'proq illyustratsiya metodidan foydalanasizmi yoki demonstratsiya metodidanmi?	Illyustratsiya 31%, demonstratsiya 16%, har ikkalasidan 54%;
Tasavvur qiling siz bir fandan yangi mavzuni 2 xil sinfda (A va B) sinfda tashkil etdingiz, birida illyustratsiya birida demonstratsiya Bu holatning o'zlashtirish natijasi qaysi birida yuqori bo'ladi deb o'ylaysiz?	Illyustratsiya metodi asosida 17% Demonstratsiya metodi asosida 8% Ikkalasida ham bir xil natija bo'ladi deb o'ylayman 8% Menimcha bu ikki metod bir-birini to'ldiradi 67%


**2-jadval. Savol-javob metodi.**

Tadqiqotda jami 14 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdi. So'rovnoma savol-javob metodi asosida o'tkazilib, dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish holati va ularning samaradorligi o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning aksariyati dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanishini bildirdi. Ular ushbu vositalarni asosan muntazam yoki zaruratga ko'ra qo'llashlarini ta'kidlashdi. Bu holat ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikka bo'lgan ehtiyoj va ijobiy munosabat mavjudligini ko'rsatadi. Ko'rgazmali vositalar ichida eng ko'p

O'tkazilgan pedagogik kuzatish ishlari boshlang'ich sinf texnologiya darslarining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosalarni beradi: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun statik tasvirlardan ko'ra, dinamik jarayonlarni kuzatish samaraliroqdir. Bu metod o'quvchilarda harakat algoritmini shakllantirishning eng qisqa yo'li hisoblanadi. Demonstratsiya va videonamoyish orqali o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchilar xotirasida chuqur muhrlanadi, bu esa "Qog'ozdan buyumlar yasash" kabi amaliy mavzularda xatoliklar darajasini 30% gacha kamaytirish imkonini beradi. Texnologiya darslarida illyustratsiya va demonstratsiya metodlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan, ularni integratsiyalashgan holda qo'llash lozim. Ya'ni, doskadagi sxema-tasvir dars davomida tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilishi, o'qituvchining amaliy ko'rsatuvchi esa asosiy o'rgatuvchi vosita bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

videonamoyishlar qo'llanilishi aniqlandi. Maket va modellar esa kamroq ishlatilishi kuzatildi. Metodik yondashuvlar bo'yicha o'qituvchilar ko'proq illyustratsiya metodidan yoki illyustratsiya va demonstratsiya metodlarini birgalikda qo'llashdan foydalanishini bildirdilar. Bir qismi demonstratsiya metodini ham samarali deb hisoblaydi. Umuman olganda, aralash metodlardan foydalanish ustunlik qiladi.

**TO'QUVCHILIK IPLARIDAN KUCHUKCHA YASASH**



**3-jadval. To'quvchilik iplaridan kuchukcha yasash jarayoni.**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 18-IDUM 3-A va 3-B sinf 60 nafar o'quvchilarda tadqiqot o'tkazildi. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanidan "To'quvchilik iplaridan kuchukcha yasash" mavzusida dars tashkil etildi. 3-A sinf (30 nafar) o'quvchilariga yangi mavzu og'zaki ravishda tushuntirib berildi. Yasash jarayoni ham ko'rgazmalarsiz tashkil etildi. Xuddi shu mavzuda 3-B sinf 24 nafar o'quvchilarida ham dars tashkil etildi. Yangi mavzu maket asosida tushuntirib berildi, mavzuga oid yasalgan namunalar ko'rsatildi. Yasash jarayoni jonli ravishda tushuntirilib, videonamoyish asosida mustahkamlandi. O'tilgan dars bo'yicha o'quvchilarda savol-javob o'tkazilganda va shu bo'yicha yasalgan namunalar tekshirib chiqilganda 3-A sinfda o'zlashtirish ko'rsatkichi 48 %, 3-B sinfda esa 73% kelib chiqdi.

O'tkazilgan amaliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni tushunish va amaliy topshiriqlarni bajarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 3-A sinfda an'anaviy og'zaki tushuntirish asosida tashkil etilgan darsda o'quvchilar topshiriqni bajarishda ko'proq qiyinchilikka duch kelgan bo'lsa, 3-B sinfda maket, namuna va videomateriallar yordamida olib borilgan dars jarayoni o'quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirgan. Bu holat ko'rgazmalilik va amaliy namoyish usullari

o'quvchilarning tasavvurini boyitishi hamda o'quv materialini tezroq o'zlashtirishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'rgazmali vositalar asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy og'zaki tushuntirishga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi. Ko'rgazmalilik o'quvchilarning mavzuni tez tushunishi, amaliy faoliyatni to'g'ri bajarishi va bilimlarni mustahkamlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar va dars jarayonidagi bevosita kuzatishlarimizdan kelib chiqadiki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun darsning nazariy qismi emas, balki uning ko'z oldida kechayotgan amaliy jarayon birinchi darajali ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqati barqaror emasligi sababli, darsda faqat og'zaki tushuntirish yoki darslikdagi rasmlar bilan cheklanish kutilgan samarani bermasligi amaliyotda o'z tasdig'ini topdi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning narsa-buyum yasashga bo'lgan yondashuvi tahlil qilinganda, "ko'rish-eshitish-bajarish" zanjiri qanchalik uzviy bo'lsa, natija shunchalik mukammal bo'lishi kuzatildi. Agar o'quvchi jarayonni bosqichma-bosqich, o'qituvchining jonli harakatlarida

ko'rsa, undagi "xato qilishdan qo'rqish" to'sig'i tabiiy ravishda yo'qoladi. Bu esa bolalarning ish qurollari bilan yana ham dadilroq ishlashiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, ko'rgazmalilik faqatgina nusxa ko'chirishga xizmat qilmasligini ham aniqladik. Aksincha, jarayon bolaga tushunarli bo'lganida, unda o'z ishiga o'zgartirish kiritish, ranglar uyg'unligini tanlash kabi mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllandi. Bu esa boshlang'ich ta'limda vizual va amaliy yordamchi vositalarning o'rni shunchaki darsni bezash emas, balki o'quvchining ijodiy tafakkurini uyg'otish ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu natijalarning muhokamasi jarayonida ko'rgazmalilikning psixofiziologik jihatlariga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur ustunlik qiladi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, mavhum tushunchalarni vizual ko'rinishga keltirish bolaning intellektual yuklamasini kamaytiradi, axborotni qayta ishlash jarayonini tezlashtiradi. Biroq, muhokamalar davomida ko'rgazmalilikdan me'yordan ortiq foydalanish ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Agar darsda ko'rgazmalilik qurollar haddan tashqari ko'p va turli-tuman bo'lsa, u o'quvchining asosiy mavzudan chalg'ishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, metodik jihatdan ko'rgazmalilik darsning maqsadi bilan uzviy bog'liq bo'lishi va o'quvchining mantiqiy fikrlashini cheklamay, aksincha, uni rag'batlantirishi zarur deb topildi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilgan interaktiv ko'rgazmalar dars samaradorligini oshirishda eng istiqbolli yo'nalish ekanligi alohida ta'kidlandi, lekin ular ham me'yorida foydalanilgani ma'qul.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'rgazmalilik tamoyili asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilim o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 25-30 %ga yuqori bo'ldi. Vizual ma'lumotlar bilan boyitilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va diqqat konsentratsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Savol-javoblar jarayonida tajriba guruhi o'quvchilari tushunchalarni nafaqat yod olganliklarini, balki ularni tasavvur qilish orqali mantiqiy bog'liqlikni ham tushunib yetganliklarini namoyon etishdi. Eksperiment yakunida o'tkazilgan so'rovnomal natijasiga ko'ra, o'quvchilarning 90 %dan ortig'i rasm, sxema va animatsiyalar yordamida tushuntirilgan mavzularni uzoq vaqt xotirada saqlab qolishganini bildirishdi. Bu esa boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilik shunchaki yordamchi vosita emas, balki bilimlarni qabul qilishning fundamental asosi ekanligini isbotladi.

**Xulosa.** Mashhur matematik, akademik A.S.Pontryagen ko'zi oqiz bo'lib qolganligiga qaramasdan, ko'rgazmalilik tasavvurlar va matematik

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ko-rgazmalilik-vositasining-chizma-geometriya-va-muhandislik-grafikasi-fanini-sifat-va-samaradorligini-oshirishdagi-ahamiyati>
2. Komenskiy Ya.A. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent: "O'qituvchi", 1975, 124-bet
3. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzlusiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.
4. Ushinskiy K.D. Inson — tarbiya predmeti sifatida. II tom. – Moskva: "Pedagogika", 1980, 246-bet.
5. Vigotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O'zbekiston", 2011, 158-bet.
6. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2013, 89-bet
7. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Ilm-ziyo", 2007, 76-bet
8. <https://interoncof.com/index.php/germany/article/download/868/77890/15432>
9. Xurboyeva, S. M. (2023). "Boshlang'ich sinflarda yangi ped texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish va o'qitish metodikasi". *Ustozlar uchun*, 51(2), 201–205.
10. Ro'ziboyeva, G. S. (2023). "Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish jarayonida ko'rgazmalilik vositalardan foydalanish". *Лучшие интеллектуальные исследования*, 3(1), 39–41.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/konstantin-dmitriy-ushinskiyning-pedagogik-g-oyalari>
12. Diyoraxon S., Komiljonova G. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET EL O'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH //QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 783-785.

tushunchalarni his-tuyg'u orqali o'zlashtirgan. Uning ko'rgazmalilik tasavvurlarni qo'llab-quvvatlash va murakkab matematik masalalarni yechishdagi metodlari e'tirof etilgan. Ushbu misol ko'rgazmalilik faqatgina ko'z bilan ko'rish emas, balki inson tafakkurida aniq obrazlar yaratish ekanligini anglatadi. Demak, dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmalilik vositalari o'quvchi ongida shunday mustahkam poydevor quradiki, bu hatto eng murakkab abstrakt g'oyalarni ham real va tushunarli haqiqatga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda ko'rgazmalilik printsipi o'quv jarayonining sifatini kafolatlovchi eng muhim omillardan biridir. O'tkazilgan tadqiqot va eksperimental shuni ko'rsatdiki, ko'rgazmalilik materiallar o'quvchilarning nafaqat xotirasini, balki ularning dunyoqarashi va kreativ fikrlashini ham rivojlantiradi. Bugungi raqamli transformatsiya davrida an'anaviy ko'rgazmalilik innovatsion texnologiyalar bilan boyitish, ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchining metodik mahorati esa vizual obrazlarni ilmiy tushunchalar bilan qachon va qay darajada bog'lay olishida namoyon bo'ladi. Binobarin, ko'rgazmalilik boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun ta'lim olamiga ochilgan o'ziga xos daraja bo'lib, u orqali bilimlar aniq, tushunarli va qiziqarli ko'rinishda shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

- Dars jarayonida ko'rgazmalilik vositalarining barcha turlaridan (foto, maket, videomaterial) muvozanatli foydalanish;
- O'quvchilarning mustaqil ishlashini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ko'paytirish;
- Illustratsiya va demonstratsiya metodlarini integratsiyalashgan holda qo'llashni kengaytirish;
- O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish;
- O'qituvchilarning metodik mahoratini ko'rgazmalilik asosida muntazam rivojlantirib borish.

Boshlang'ich sinf darslarida ko'rgazmalardan foydalanish, o'quvchilarga yangi texnologiyalarni o'rganish va tushunishni osonlashtirishda juda muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmalar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar. Shu sababli, o'qituvchilar darslarida ko'rgazmalarni interaktiv, qiziqarli va amaliy bo'lishini, ko'rgazmalilik vositalarni to'g'ri va samarali ishlatishga alohida e'tibor berishlari lozim.

13. Komiljonova, G. N. qizi.(2023). Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 198-201. Komiljonova, G. N. "qizi.(2023). Fanlararo bog'lanish asosida boshlang'ich ta'limni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari." *Educational Research in Universal Sciences* 2.12: 198-201.
14. Pozilov Hamidjon Ikromjon o'g'li, & Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi. (2023). YOSH AVLOD KAMOLOTIDA TEXNOLOGIYA FANI VA UNING KELAJAGI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 923–926. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.760>
15. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
16. Mo'bina M. et al. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA-FANLARARO ALOQADORLIK //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – T. 46. – №. 2. – C. 12-16. Mo'bina, Madumarova.
17. QIZI, K. G. N. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *KASB-HUNAR TA'LIMI MUHADDIRI*, 127.
18. Komiljonova, G. N. (2025). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH. *Inter education & global study*, 3(6 (1)), 182-197.
19. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET EL O'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.